

**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING SIYOSIY FAOLIGINI OSHIRISH  
IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**Ortiqova Nargiza Akramovna,**  
*Qo‘qon DU dotsenti, PhD*  
G-mail:Ortiqova1101@gmail.com

***Annotatsiya.**Maqolada talaba yoshlar siyosiy faolligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati, yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishning omillari, siyosiy ong va siyosiy madaniyatning rivojlanishida muvozanatning buzilishi sabablari va oqibatlari, yoshlarda siyosiy faollikni rivojlanishiga bog‘liq shart-sharoitlar yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** siyosiy jo‘shqinlik, siyosiy faollik, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, kuchli informatsion bosim, siyosiy barqarorlik, siyosiy beqarorlik, ma‘naviy qashshoqlashuv.*

***Аннотация.**В статье описывается социально-педагогическая необходимость повышения политической активности студенческой молодежи, факторы формирования политической культуры молодежи, причины и последствия дисбаланса в развитии политического сознания и политической культуры, условия, связанные с развитием политической активности среди молодежи.*

***Ключевые слова:** политический энтузиазм, политическая активность, политическое сознание, политическая культура, сильное информационное давление, политическая стабильность, политическая нестабильность, бездуховность.*

***Abstract.** This article examines the socio-pedagogical necessity of increasing the political activity of university students, the factors influencing the formation of youth political culture, the causes and consequences of imbalances in the development of political consciousness and political culture, as well as the conditions that contribute to the development of political activity among young people.*

***Keywords:** political enthusiasm, political activity, political consciousness, political culture, strong information pressure, political stability, political instability, spiritual impoverishment.*

**Kirish.** “Globallashuvning avj olishi ta’sirida tez o‘zgarayotgan zamonda yoshlarning kuchli informatsion bosim ta’siri ostida yashayotganligi siyosiy barqarorlik uchun xavf-xatarni kushaytirayotgan bugungi kunda ularning siyosiy madaniyatini rivojlantirishning dolzarbligini yana ham oshirmoqda”.[1] Ommaviy axborot vositalari, turli ommaviy kommunikatsiyalar orqali tarqatilayotgan informatsiyalarning ko‘pchiligi yoshlarning intellektual jihatdan yanada rivojlanishiga emas, balki ma‘naviy qashshoqlashuviga, mamlakatlarda siyosiy beqarorlikning yuzaga kelishida etakchilik qilishga undashga qaratilganligi, ularning siyosiy madaniyatini rivojlantirishni e’tibordan qoldirmaslikni taqozo etmoqda. Yoshlar ijtimoiy tabaqalari ruhiyatiga xar qanday voqea, xodisa jarayonlariga qiziquvchanlik, taqlidchilik va xayotiy tajribaning yetishmasligi ularning ana shu undovlar ta’siriga tushib qolishlari xavfini kushaytiradi. Albatta, bunday salbiy xolatning, yuzaga kelishi mamlakatda kuchli iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramasdan, siyosiy barqarorlikning yuzaga kelishiga, buning oqibatida iqtisodiyotning xam izdan chiqishiga va mamlakatning butkul boshi berk ko‘chaga kirib qolishini muqarrarlashtiradi. Yoshlar siyosiy madaniyatini rivojlantirish mamlakatimizda jaxon standartlariga mos keladigan demokratik jamiyat qurish vazifasi bilan xam bog‘liqdir.

**Adabiyotlar tahlili.** Tadqiqotning nazariy asosini siyosiy madaniyat, siyosiy ong va yoshlar siyosiy faolligiga oid ilmiy manbalar tashkil etadi. M. Lafasov yoshlar ma'naviy tarbiyasining siyosiy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritgan. E. Kurbanov demokratik islohotlar fuqarolarning siyosiy faolligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. I. Nazarov yoshlarni siyosiy fanlarga jalb etish orqali ularning siyosiy bilim va faolligini rivojlantirish masalalarini tahlil qilgan. M. Nazirov esa siyosiy barqarorlik va fuqarolik faolliги o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab bergan. Ushbu manbalar bo'lajak o'qituvchilarning siyosiy faolligini rivojlantirish muhim ijtimoiy-pedagogik vazifa ekanligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot sifat tahliliga asoslangan bo'lib, unda bo'lajak o'qituvchilarning siyosiy faolligini oshirish masalasi ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganildi. Tadqiqot jarayonida siyosiy faollik, siyosiy ong va siyosiy madaniyatga oid ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Shuningdek, qiyosiy tahlil, tavsifiy tahlil va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali yoshlarning siyosiy faolligiga ta'sir etuvchi omillar, siyosiy ong va siyosiy madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik hamda ularning rivojlanishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlar aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning siyosiy faolligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tahlillar va natijalar.** Agar yoshlarimiz demokratik qadriyatlarning ma'no-mazmunini qanchalik chuqur egallagan bo'lsa, uni shakllantirishda faol ishtirok etsa, bu vazifani amalga oshirish ham o'z samarasini beradi. Aksincha, ular bu jarayonga beparvo bo'ladigan bo'lsalar, demokratik qadriyatlarning ma'no-mazmunini aniq tuchunib yetmasalar, bu ularning o'zlari to'liq anglab yetmagan xolda yovuz kushlar ta'siriga tushib qolishlariga olib kelishi mumkin. Ana shu salbiy holatning oldini olish va mamlakatda siyosiy barqarorlikning ta'minlaganligi demokratik jamiyat qurish imkoniyatlarini mustahkamlaydi.

Yoshlar siyosiy madaniyatini shakllantirishning ikkinchisi — tashqi ehtiyojlar hisoblanadi. Bular mamlakatni tashqi xavf-xatarlardan himoyalash, uning xududiy butunligi, chegaralar xavfsizligini ularga nisbatan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xar qanday yovuz kushlarga nisbatan siyosiy ogohlikni mustaxkamlash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Yoshlarda tashqi xavf-xatarning mamlakat uchun xar doim mavjud bo'lishi mumkinligini ular ongi va qalbida shakllantirmas ekanmiz, bu o'z navbatida, ularda mamlakat taqdiri uchun daxldorlik mas'ullik tuyg'ularining sayozlashuviga ham sabab bo'ladi. Agar siyosiy madaniyatni rivojlantirishga erisha olsak ular mamlakat uchun tashqi xavf-xatarlar nima, kimlar uni uyushtirishlari mumkin, xududiy butunlik nima uchun zarur bo'ladi, chegaralarni tashqi dushmanlar taxdidlaridan himoya qilish nima uchun kerak va buning uchun qanday vazifalarni birinchi navbatda amalga oshirish zarur, yovuz kushlar qanday paydo bo'ladi, ularning maqsadlari nimalardan iborat kabi o'ta murakkab, ayni

paytda mamlakat taqdiri, yoshlarning istiqboli bilan bog‘liq tuchunchalar va masalalarning mazmun-mohiyatini anglab yetishga hamda ularga nisbatan o‘zlarining munosabatlarini shakllantirishga erishish mumkin bo‘ladi.

O‘rni kelganda, shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, bugungi kunda OAV va turli aloqa kommunikatsiyalarning misli ko‘rilmagan darajada jadal rivojlanishi sharoitida yoshlarning siyosiy madaniyatidan ko‘ra siyosiy ongining tez o‘sib borish xolati sodir bo‘lmoqda. Siyosiy madaniyat, siyosiy ongga nisbatan orqada qolmoqda. Albatta, siyosiy madaniyat siyosiy ong orqali yuzaga keladi va rivojlanadi. Agar siyosiy ong shakllanmagan bo‘lsa, siyosiy madaniyat xam shakllanmaydi. Ular bir-biri bilan bog‘liq omillar xisoblanadi, bu xaqda yuqorida to‘xtalgan edik. Bu yerda siyosiy madaniyat siyosiy ongning jadal rivojlanish tezligidan orqada qolmoqda, — deganimizda yoshlarning dunyo miqyosida va mamlakatda kechayotgan siyosiy jarayonlardan xabardorligi hamda ularning maqsad, muddaolari kimlarning manfaatlariga qaratilganligi aniq tasavvur qilmasdan va tuchunib yetmasdan turib bunday jarayonlarga yuzaki qarash holatlarining mavjudligi nazarda tutiladi. Shu bilan birga siyosiy ongning yuksak darajada rivojlanib, siyosiy madaniyatning undan orqada qolish holatining yana bir ko‘rsatkichi yoshlarning mamlakatda qabul qilinayotgan turli qonunlar, siyosiy xayot bilan bog‘liq me’yoriy xujjatlar, xatto o‘zlarining xuquq va erkinligini kafolatlovchi qonunlarni bilganlari xolda, ulardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga siyosiy salohiyatining yetmasligidir. Bu fikrimizga aniqlik kiritish maqsadida, yana bir muhim omil mohiyatiga ham e’tiborni qaratish zarur bo‘ladi. Xususan, yuqoridagi siyosiy madaniyatning siyosiy ongga nisbatan orqada qolayotganligi haqidagi g‘oyamizda ular doimo bir darajada rivojlanishi lozim, — degan fikr yo‘q, albatta. Chunki, xar qanday ong shakllarida bo‘lgani kabi, siyosiy ong xam siyosiy madaniyatga nisbatan oldin shakllanadi va rivojlanadi, siyosiy madaniyat uning bazasida shakllanadi va rivojlanadi. Bu yerda gap ularning rivojlanish darajalari o‘rtasida xar ikki tomonning mamlakat siyosiy hayotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladigan muvozanatni ta’minlaydigan ma’lum oraliq masofa mavjudligi va uning o‘zaro uzoqlashib ketmasligi haqida bormoqda. Shuni ham hisobga olish kerakki, siyosiy madaniyat siyosiy ongdan oldin shakllanmaydi va rivojlana olmaydi.

Demak ana shu oraliq masofadagi muvozanat buzilib ketishida siyosiy ong yetakchilik qiladi. Bu qanday oqibatlariga olib keladi. Agar ana shu muvozanat buziladigan bo‘lsa, yoshlarning bilib-bilmasdan turli siyosiy jarayonlarga aralashib, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlar va siyosiy beqarorlikning ishtirokchilariga aylanib qolishlariga olib keladi. Shu ma’noda ham siyosiy ongning siyosiy madaniyatga nisbatan keskin rivojlanishiga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish mamlakat va umumxalq taraqqiyotlari manfaatlariga xizmat qiladi.

Siyosiy ongning rivojlanishi natijasida, yoshlarda siyosiy jo‘shqinlik va siyosiy faollik oshadi. Agar, u siyosiy madaniyat bilan bir vaqtda rivojlantirilmasa, muvozanat barham topsa, siyosiy ong yoshlardagi ana shu jo‘shqinlik va faollikni mamlakatning siyosiy

ziddiyatlar girdobiga tushib qolishiga olib kelish xavfini yuzaga keltiradi. Bunday o'ta xatarli jarayonning oldi olinmas ekan, yoshlarning siyosiy jo'shqinligi va siyosiy faolligidan turli siyosiy kushlar o'zlarining siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda, xususan, hokimiyatni qo'lga kiritishda foydalanishlari mumkin.

Yoshlarda siyosiy jo'shqinlik va siyosiy faollik ham o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Ularning yuzaga kelishi quyidagilar bilan bog'liq bo'ladi:

- a) mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy inqirozning yuzaga kelishi;
- b) millatlararo munosabatlarda ziddiyatlarning sodir bo'lishi va dinlararo bag'rikenglikning barham topishi;
- v) mamlakat amaliy faoliyatida yoshlar manfaatlari, ularning o'sib boradigan ehtiyojlariga nisbatan e'tiborsizlikning yuzaga kelishi;
- g) mamlakatdagi siyosiy partiyalarning hokimiyat uchun olib boradigan kurashlarida amaldagi qonunlarga xilof ravishda faoliyat ko'rsatishlari va bunga yoshlarni jalb qilish holati;
- d) mamlakat hayotiga tashqi kushlarning aralashuvi va uning xavfsizligiga taxdidlarning yuzaga kelishi kabilarda yoshlar siyosiy ongining qisqa muddatda keskin o'sib ketishiga olib kelishi mumkin.[2]

Endi ular qanday namoyon bo'lishi mumkinligi, haqida fikr yuritishga xarakat qilamiz. Mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarning vujudga kelishi barcha aholi kabi yoshlarning hayotida ham o'z ifodasini topadi. Bu ular o'rtasida ishsizlikning yuzaga kelishiga, shu bilan birga itstisodiy ahvolining yomonlashuviga sabab bo'ladi. Yoshlar ana shu murakkab vaziyatdan chiqib ketish yo'llarini izlashga majbur bo'ladi va ularning birinchi omili sifatida davlatning amaldagi siyosatdan noroziligini va uni o'zgartirish lozim, degan siyosiy qarashlarning yoshlar o'rtasida ommaviy ravishda shakllanishiga olib keladi. Bu jarayonning avj olishining oldini olish va yuzaga kelgan vaziyatning o'z vaqtida siyosiy vazminlik bilan hal etilishi amaldagi hokimiyatning siyosiy faoliyatdagi moxirligiga bog'liq bo'ladi.

Millatlararo munosabatlardagi xamkorlikning barham topishi ular o'rtasida ziddiyatlarning yuzaga kelishi va dinlararo bag'rikenglikning barham topishi yoshlar siyosiy ongining keskin o'sib ketishiga olib keladi. Bu har bir yoshning u yoki bu millatga mansubligi, u yoki bu dinga e'tiqod qilishi bilan bog'liqdir. Aksariyat ko'pchilik hollarda yovuz kushlar va siyosiy oqimlar o'zlarining jirkanch maqsadlarini amalga oshirishda xuddi ana shu salbiy omillarni yuzaga keltirish orqali erishishga xarakat qiladilar. Bu omilning qudrati, kushi shundan iboratki u yoshlarning ichki tuyg'ulari, dunyoqarashi, qalbi, g'ururi, or-nomusi, xis-xayajonlari bilan bog'liq. Ular shunday nozik tuyg'ularki, agar ularga nisbatan qandaydir salbiy ta'sir yuzaga keladigan bo'lsa, bu siyosiy ongning misli ko'rilmagan darajada o'sib ketishiga olib keladi. Bugun dunyoning ba'zi davlatlarida davom etayotgan siyosiy beqarorlikka yoshlarni jalb qilishda xuddi ana shu millatlararo

munosabatlarida ziddiyatlarni va dinlararo bag'ritoshlikni yuzaga keltirish imkoniyatlaridan foydalanilmoqda.

**Xulosa.**“Yoshlar siyosiy ongining keskin o‘sib ketishi va siyosiy madaniyat rivojining undan orqada qolishiga davlat amaliy faoliyatida yoshlarning o‘sib boradigan ehtiyojlarini hisobga oluvchi aniq dasturlarning ishlab chiqilmaganligi va uni real xayotga tatbiq qilinmaganligi ham sabab bo‘ladi”.[3] Yuqorida ta’kidlaganimizdek yoshlar nafaqat mehnat resurslari, shu bilan birga jamiyatning mustaqil ijtimoiy tabaqalari bo‘lib, mamlakatning suveren davlat sifatida barqaror rivojlanishi, uning istiqboli yoshlar bilan bog‘liqdir. Ana shu o‘ta muhim jixatdan kelib chiqqan holda, har bir davlat o‘z yoshlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda aniq ishlab chiqilgan va ilmiy asoslangan davlat dasturiga ega bo‘lishini va yoshlarda siyosiy bilim, siyosiy ong va siyosiy madaniyatni shakllantirishni aynan maktabda ta’lim-tarbiya jarayonidan boshlashni, izchil amalga oshirishni taqozo etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lafasov. M. Mustaqillik va ma’naviy tarbiyaviy ishlar T.:“Moliya- Iqtisod” 2008. – B-123.
2. Siyosiy madaniyat va siyosiy mafkuralar. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/12525-siyosiy-madaniyat-va-siyosiy-mafkuralar>.
3. Markaziy Osiyo: g‘oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. – T.:«Ijod dunyosi» nashr uyi, 2002 yil.

Ajiniyaz atindagi  
NOKIS MAMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI  
N M P I  
1934